



## IJTIMOIY TARMOQLARDA AXBOROT XURUJLARI VA TAHDIDLARNING JAMIYATGA TA'SIRI

Hazratova Aziza Ko'chkin qizi

Shahrisabz davlat pedagogika instituti talabasi

Email: [azizahazratova13@gmail.com](mailto:azizahazratova13@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ijtimoiy tarmoqlarda axborot xurujlari va tahdidlarining jamiyatga qay darajada ta'sir etayotgani va ulardan kelib chiqayotgan natijalar haqida yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** axborot, axborot xurujlari, axborot tahdidlari, internet, global tarmoq, ta'lif, tarbiya, ogohlilik, ma'naviy ta'sir.

## ВЛИЯНИЕ ИНФОРМАЦИОННЫХ АТАК И УГРОЗ В СОЦИАЛЬНЫХ СЕТЯХ

**Аннотация:** В данной статье описано, в какой степени информационные атаки и угрозы в социальных сетях влияют на общество и их результаты.

**Ключевые слова:** информация, информационные атаки, информационные угрозы, Интернет, глобальная сеть, образование, обучение, осведомленность, моральное воздействие.

## THE IMPACT OF INFORMATION ATTACKS AND THREATS ON SOCIAL NETWORKS ON SOCIETY

**Abstract:** This article discusses the extent to which information attacks and threats on social networks affect society and the consequences that arise from them.

**Keywords:** information, information attacks, information threats, Internet, global network, education, upbringing, awareness, spiritual influence.

Bugungi kunda axborot texnologiyalari, ijtimoiy tarmoqlar va internetdan foydalanmaydigan va foydalanishni bilmaydigan insonning o'zi yo'q. Bugungi kunda axborot texnologiyalarimiz shiddatli ravishda o'sib bormoqda va bu zamonaviy asrimiz uchun juda muhim hisoblanadi. Axborot texnologiyalari va ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish kunlik ehtiyojimizga aylanib bormoqda. Zamonaviy va rivojlanayotgan mamlakatlarda axborot sig'imi shu darajada ortib borayaptiki, bu axborot o'lchamlarini hisoblashning hech ham iloji yo'qdek. Bu esa har bir bugungi



kun yoshlari va rivojlanish ostonasida turgan insonlar uchun ta'sirini o'tkazmay qolmaydi.

Bugungi rivojlanayotgan dunyoda kerakli ma'lumotlarni qidirish, ularni topish va keraklicha ma'lumotlardan foydalanish hech kimga qiyinchilik tug'dirmay qoldi. kerakli ijtimoiy tarmoqlarga kirish va kerakli ma'lumot nomini kiritib, o'zingizga kerakli ma'lumotni olishingiz kifoya. Bundan tashqari, ijtimoiy tarmoqlar orqali siz uzoqdagi insonlar bilan juda oson tarzda suhbathashishingiz, muloqotda bo'lishingiz mumkin. Albatta, shuncha qulayliklarning salbiy ta'sirlari ham yo'q emas. Ijtimoiy tarmoqlarning zararli oqibatlari, ulardan kelayotgan salbiy ta'sirlar bugungi kun odamlariga kattadan katta xavf tug'dirmoqda. Negaki, bugungi yer kurrasida bugun qancha odam istiqomat qilayotgan bo'lsa, ularga yetkazilayotgan axborotlar undanda ko'pligini bilamiz. Bularning qaysi biri foydali? Qaysi biri xolis? Qaysi axborotlar kimlarning manfaatlari uchun xizmat qilayapti? Ushbu keltirilgan savollarga har bir inson uchun, har bir ma'lumot yuzasidan javob qaytarishning iloji yo'q.

Bugungi kunda axborot xurujlari va axborotlarga qilinayotgan tahdidlar qayerda bo'lmasin bizning qulog'imizga yetib keladi. Dunyoning u chekkasidan turib, bu chekkasiga turgan insonlarga ijtimoiy tarmoqlar orqali ziyon yetkazilishi va tahdid solinayotganini ham kuzatyapmiz. Shu o'rinda, birinchi prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimovning " Yuksak ma'naviyat- yengilmas kuch " asarida keltirilgan quyidagi gaplarini eslashimiz mumkin: " Bugungi kunda zamonaviy axborot maydonidagi harakatlar shu qadar tig'iz, shu qadar tezkorki, endi ilgarigidek, ha, bu voqeа bizdan juda olisda yuz beribdi, uning bizga aloqasi yo'q, deb beparvo qarab bo'lmaydi. Ana shunday kayfiyatga berilgan xalq yoki millat taraqqiyotidan yuz yillar orqada qolib ketishi hech gap emas" [1].

Bugungi kunda, globallashuv jarayonining yana ko'plab tarmoqlari mavjud bo'lib, bularidan birining o'ziga xos jihat shundan iboratki, bugungi sharoitda u ma'naviy- ma'rifiy , mafkuraviy ta'sir o'tkazishning nihoyatda keskir quroliga aylanib, har xil siyosiy kuchlar va markazlarning manfaatlariga xizmat qilayotganini sog'lom fikrlaydigan har qanday odam, albatta kuzatishi tabiiy holga aylanib qoldi.

Har bir inson ijtimoiy tarmoq va axborot vositalaridan foydalanayotgan vaqtida belgilangan tartibdagi saytlardan foylanishi, taqiqlangan saytlarga kirib qolishdan o'zini himoya qilishi, qaysi ijtimoiy tarmoqlardan qay tartibda ma'lumot olishi va almashinuv qilishi mumkinligini bilishi va o'rganib chiqishi lozim. Aks holda, axborot tahdidlariga uchrab qolish hech gap emas. " Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida" gi Qonunning qabul qilinishi har kimning axborot ni erkin va moneliksiz olish hamda foydalanish huquqlarini amalga oshirishda muhofaza




qilinishi, shaxs, jamiyat va davlatning axborot borasidagi xavfsizligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi[2].

Ijtimoiy tarmoqlarda va kompyuterda axborot tahdidlarini oldini olish uchun saqlayotgan, qayta ishlayotgan, va uzatayotgan axborotlarizga ehtiyyotkorona munosabatda bo'lishingiz lozim va qay tartibda foydalanayotganingizni muntazam ravishda tekshirib borishingiz lozim. Bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlar orqali o'z joniga qasd qilishni targ'ib qiluvchi saytlar statistik ma'lumotlarga qaraganda 9 millionga yaqin bo'lsa , ulardan 4 mln.dan ziyod saytlar erotic mazmunga ega ekanligi har birimizni mushohada qilishga chorlaydi. Shu kabi tahdidlar, avvalo, yoshlarning ongini egallashga yo'naltirilgan bo'lib, xalqimizning ma'naviy-marifiy, me'yoriy xazinasi bo'lgan odob axloq, sharm hayo, iffat-andisha kabi yuksak fazilatlarimizga tajovuz qilib, ko'p ming yillik milliy qadriyatlarimizga putur yetkazishi hech gap emas. Bilamizki, ijtimoiy tarmoqlarda axborot xurujlari va tahdidlarining oldini olish uchun internetni cheklab qo'yishning hech qanday foydasi yo'q. shuning uchun, har bir axborotni o'zimizga ziyon yetmaydigan tartibda o'rganib chiqishimiz va foydalanishimiz lozim.

Darhaqiqat, 2002-yil 12-dekabrda qabul qilingan "Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida" gi qonunda axborot xavfsizligini ta'minlash sohasidagi davlat siyosati axborot sohasidagi davlat siyosati axborot sohasidagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan bo'ladi hamda shaxs, jamiyat va davlatning axborot borasidagi xavfsizligini ta'minlash maqsadida turli vosita va usullarni qo'llash lozim.

Bundan tashqari bugungi kun odamlari ijtimoiy tarmoqlar orqali qilinadigan tahdidlardan katta ziyon ko'rayaptilar va o'z joniga qasd qilish muammozi ham bo'lmoqda. Bu albatta juda ayanchli holat hisoblanadi desak adashmagan bo'lamiz.

Aborot xavfsizligi tizimi mamlakatning axborot sohasidagi siyosatini davlatda milliy xavfsizlik tizimi bilan chambarchas bog'laydi. Har bir shaxs, inson bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlarda ogohlilik va hushyorligini oshirishi lozim va o'zining ma'naviy va ma'rifiy jihatdan asray olishi lozim. Shundagina hech qanday axborot tahdidlari ostiga tushib qolmaydi va bunday xurujlardan, xavflardan yiroq bo'ladi. Bugungi kun ya'ni zamon talabi siz-u bizdan shunday ogohlilik va hushyorlikni talab qilyapti.



## Foydalanalgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimovning " Yuksak ma'naviyat-Yengilmas kuch" kitobi. Toshkent-2010. 112-bet
2. I.A.Karimov. Mamlakatimozda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiysi. T.2010.
3. O'zbekiston Respublikasining "Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida" gi qonuni// O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisining Axborotnomasi.-2003.-N:1.-2-m
4. Axborot xavfsizligi: yechim va muammolar.- Toshkent: Iste'dod 2004.3-4 bet.
5. Y. Mamatova, S.Sulaymonova " O'zbekiston media ta'lim taraqqiyoti yo'lida" kitobi. "Extremum-press". Toshkent-2015.
6. Baxriddin Umarov, Muyassar Axmedova " Axborot tizimlarida Axborot- psixologik xavfsizlik" kitobi. Toshkent Chashma Print-2013.

